

Sug'oriladigan yer maydonlarda innovatsion texnologiyalar yordamida tekislash ishlari

Institutimiz ilmiy tadqiqot markazida 20-may kuni O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlantirish vazirligi bilan tuzilgan A-OT-2021-32 - sonli shartnomaga asosan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi «O'zbekistonning sug'oriladigan maydonlari uchun tuproq himoyalovchi qishloq xo'jaligida energiya-suv-o'g'it-ekotizimlar tejovchi avtomatlashtirilgan – aqlii tizimlar» mavzusidagi davlat grantini bajarishning navbatdagi ishlari tashkil etildi.



Unda EkoGIS markazi rahbari Alim Pulatov boshchiligidagi GIM kafedrasi katta o'qituvchi Atajanov Adiljon, Geodeziya va geoinformatika kadedrasi o'qituvchi Islomov O'tkir va yosh stajyor o'qituvchilar B.Mamataliyev va Xolmirzayev X. qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarini tekislash ishlarida zamonaviy lazerniy nivelirdan foydalanish va dala sharoitda qo'llash ishlari amalga oshirildi.

TIQXMMI matbuot xizmati